

**“Omadli depozit”
dasturini o`tkazish qoidalari**

MUNDARIJA

1. Umumi shartlar;
2. Atama va ta`riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatları;
6. Bankning huquq va majburiyatları;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATB (keyingi o`rinlarda “Bank” deb ataladi) “Omadli depozit” dasturining Qoidalari (keyingi o`rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dastur ishtirokchilari uchun Dasturda ishtirok etish bilan bog`liq mulkiy xavf-xatarni yuzaga keltirishi mumkin bo`lgan tavakkalchilikka asoslangan o`yin emas. Dasturni o`tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to`lovning kiritilishi bilan bog`liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalalar O`zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq chaqirib olinmaydigan ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalalar Bankning www.tbcbank.uz rasmiy saytida joylashtirilgan.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2022-yil 24-may; Dasturning tugash sanasi: 2022-yil 31-avgust. Dasturning amal qilish muddati: Dasturning boshlanish sanasidan boshlab tugash sanasigacha bo`lgan muddat davomida.

1.5. Dasturning o`tkazilish joyi: O`zbekiston Respublikasi hududi.

1.6. 2022.05.24 sanasidan 2022.06.30 sanasigacha TBC UZ mobil ilovasi orqali milliy valyutada amaldagi muddatli depozit summasini ko`paytirgan va/yoki milliy valyutada yangi muddatli depozit ochgan identifikatsiya qilingan har qanday Bank Mijozi quyidagi shartlarga muvofiq bo`lgan taqdirda Dastur ishtirokchisiga aylanishi mumkin:

1.6.1. Depozitni to`ldirish yoki depozit ochish summasi 50 000 000 (ellik million) so`mdan kam bo`lmagan miqdorga teng.

1.6.2. Mijozning barcha depozitlari summasi ushbu Dasturning amal qilish muddati davomida kamaymasligi kerak.

1.6.3. Muddatli depozit hisoblaridagi mablag'lar Dasturning amal qilish muddati davomida chiqarilmasligi kerak.

1.7. Bank xizmatlaridan va mahsulotlaridan foydalanish, shu jumladan milliy valyutada muddatli depozit omonatini (depozit) ochish tartibi va shartlari Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan yoki Bankning mobil ilovasi orqali tanishib chiqish uchun taqdim etilgan Bankning Bosh Shartlari (keyingi o`rinlarda “BSh” deb ataladi) bilan va Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

1.8. Dasturning amal qilish muddati davomida Bank Mijozi ellik million so`mdan ko`proq summaga muddatli depozit omonatini to`ldirgan yoki ochgan holda ushbu Dasturning qoidalari va shartlarini akseptlaydi va qabul qiladi.

2. ATAMA VA TA`RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Bank” ATBning “Omadli depozit” dasturi
Bank Mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoni shaxs
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq bo`lgan Bank mijoji.
Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi smartfon-qurilmalar uchun foydalanish mumkin bo`lgan TBC UZ mobil ilovasi.
Depozit	Bank mahsuloti, muddatli depozit Shartnomasida ta'riflangan shartlar asosida milliy valyutada ochiladigan muddatli depozit omonati.
Sovrin	<p>Ikki kishi uchun quyidagi yo'nalishlarning biriga 7 kunlik turistik yo'llanma:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Dubay - Gruziya - Sent Vinsent va Grenadinlar - Turkiya - Misr - Tailand - Maldiv orollari
Transh	Mijozning Bankdagi barcha muddatli depozit omonatlari umumiylar summasining ko'paytirilishi

3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

- 3.1. Dastur tashkilotchisi Bank hisoblanadi.
- 3.2. Dastur doirasida Bank tomonidan 10 ta sovrin o'ynaladi.
- 3.3. Bankning aloqa ma'lumotlari: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko`chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI.

- 4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Bankning Mijozi ushbu Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.
- 4.2. 50 000 000 (ellik million) so'mdan kam bo'limgan miqdordagi har bir muvaffaqiyatli Transh uchun Mijozga ID-raqam (Chipta) beriladi. Bitta Ishtirokchi qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan Chiptalar soni 120 (bir yuz yigirma) taga teng.
- 4.3. Chipta Ishtirokchiga sovrin uchun da'vogarlar ro'yxatidan joy olish huquqini beradi.
- 4.4. Muddatli depozit ochish tartibi Bankning “Muddatli depozit” mahsuloti shartlari bilan belgilanadi va Bankning boshqa tegishli shartnomalari bilan tartibga solinadi.
- 4.5. Sovrin Dasturning amal qilish muddati yakunlanganidan keyin Dasturning barcha ishtirokchilari o'rtasida tasodifiy tanlab olish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri efirda o'ynaladi.
- 4.8. Bank har bir g'olib bo'lgan Ishtirokchini Sovrin yutib olgani haqida SMS va/yoki mobil ilovada Push-bildirishnoma orqali, shuningdek Bankning boshqa aloqa vositalari yordamida xabardor qiladi. Dastur g'oliblariga sovrinlar o'yin natijalari e'lon qilingan kundan boshlab bir oy ichida topshiriladi.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- Dastur haqida Bank hujjatlari bilan belgilangan tartibda va to`liq hajmda ma`lumotlarni olish;
- mazkur Qoidalarga muvofiq ushbu Qoidalarning 1.6 bandiga muvofiqlik sharti bilan Ishtirokchi maqomiga ega bo`lish;

- sovrindan uchinchi shaxs foydasiga voz kechish.

5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur Qoidalari bilan tanishib chiqishi shart. Bank Mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomatik ravishda ushbu Dastur Qoidalari bilan uning tanishib chiqib, to`liq o`z roziligini bildirganini anglatadi.

5.3. Ishtirokchi mazkur Qoidalarga muvofiq o'ynalgan Sovrindan faqat shaxsiy maqsadlari uchun foydalanish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

6.1. Bank Dasturni o`tkazish, shuningdek Sovrinni o'ynash bo`yicha majburiyatlarini mazkur Qoidalarga muvofiq bajarishi shart.

6.2. Ushbu Qoidalar 1.4-bandga muvofiq Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas.

6.3. Dastur ishtirokchilarini identifikatsiya qilish maqsadida Bank Dasturni amaldagi qonunchilik normalari doirasida o`tkazish uchun anketalashtirish yordamida mijozlarning shaxsga doir ma`lumotlarini yoki boshqa ma`lumot va hujjatlarini to`plashga haqli.

6.4. Bank Dastur haqida qo`shimcha ma`lumotlarni <https://tbcbank.uz/> internet saytida hamda Bank ofislarida joylashtirish huquqiga ega.

6.5. Mijoz Bank tomonidan xavf-xatar va suiiste'mol holatlari yuzasidan tekshiruv o`tkazilganidan keyin sovrinni olishga da'vo qilishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank Mijoz qonunga xilof, shubhali va/yoki firibgarlik bilan bog'liq harakatlarni amalga oshiryapti, degan asosli xulosaga kelsa, ushbu Qoidalardagi shartlarni ijro etishdan bosh tortishga haqli.

Shu bilan birga Bank: (a) har qanday chiptani bekor qilishi; (b) Mijozga Dasturda ishtirok etishni yoki sovringa da'vogarlik qilishni taqiqlashi; (d) Mijozning kelajakdagи aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklashi; va/yoki (e) agar Mijozning harakatlari ushbu Qoidalarga zid va/yoki Mijoz Dastur shartlaridan noqonuniy foydalanyapti yoki uni qandaydir tarzda suiiste'mol qilyapti, deb hisoblab, Mijoz hisob yozuvining amal qilishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanib qolmaydi:

- (i) bir necha hisob yozuvlarini yaratish;
- (ii) ro'yxatdan o'tish vaqtida yolg'on ma'lumot taqdim etish;
- (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatishning istalgan shakli ko'rinishida har qanday kodni ommaga namoyish etish;
- (iv) hisob yozuvining haqiqiy egasi nomidan harakat qilayotgan uchinchi tomonlarga foydalanish imkoniyatini taqdim etish.

6.6. Agar Bank tomonidan Dastur natijalari e'lon qilinganidan keyin Dasturda g'olib bo'lgan ishtirokchi bilan bir hafta bog'lanib bo'lmasa, Bank muayyan g'olib ishtirokidagi o'zin natijasini bekor qilish va Sovrinni Dasturning boshqa Ishtirokchilari o'rtasida qayta o'ynashga haqli.

7. JAVOBGARLIK.

7.1. Ishtirokchiga sovrinni yutib olgani haqida xabar berilgan vaqtidan boshlab Bankning Sovrinni o'ynash bo'yicha majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

7.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog`liq ushbu Qoidalardagi majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun javobgar emas.

7.3. Agar 7.2-bandda ko`rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bankning texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sanasi va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o`zida saqlab qoladi.

7.4. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo`lmagan harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgarlikni o`z zimmasiga olmaydi.

7.5. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozi o`rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog`liq barcha nizoli masalalar do`stona yo`l bilan maslahat va muzokaralar orqali hal qilinadi.

8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar Bankning rasmiy ro`yxatdan o'tgan manzilida O`zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur Qoidalar 2022.05.23 sanasida kuchga kiradi va 2022.08.31 sanasigacha amal qiladi.

9.2.. Ushbu Qoidalar Bankning www.tbcbank.uz rasmiy saytida joylashtirilgan.

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqorida keltirilgan saytda (yuqorida keltirilgan havolada) tegishli o'zgarishlarni tekshirgan holda Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilib borishlari kerak

9.4. Bank Mijozi TBC UZ mobil ilovasining 24/7 Yordam bo'limiga kirib, ushbu Dasturda ishtirok etishdan bosh tortishga haqli.

9.5. Agar Bank Mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali tranzaksiyalar/harakatlarni aniqlasa, yoki Bankda Mijoz tomonidan noqonuniy yoki amaldagi qonunchilik hamda Bankning har qanday shartnomasiga zid bo`lgan firibgarlik harakatlari sodir etilganligi haqida shubha paydo bo`lsa, Bank Mijozga har qanday mukofotni taqdim etishdan bosh tortishga haqli.